

[illegible]

RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

ELEKTRON ILMIY JURNALI MAXSUS SON

[illegible]



**RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT
TEKNOLOGIYALARI
DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ
ТЕХНОЛОГИИ**

Elektron ilmiy jurnal | Electronic scientific journal

MUASSIS | FOUNDER

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Tashkent State University of Economics**

TAHRIR KENGASHI RAISI | CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – t.f.d., professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – doctor of technical sciences, professor

BOSH MUHARRIR | EDITOR-IN-CHIEF

Abdullaev Munis Kurbonovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent

Abdullaev Munis Kurbonovich – PhD, docent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI | DEPUTY CHIEF EDITOR

Vafoev Boburjon Rasulovich – i.f.n., dotsent

Vafoev Boburjon Rasulovich – PhD, docent

MA‘SUL KOTIB | EXECUTIVE SECRETARY

L.A. Ablazov, I. Kungratov | L.A. Ablazov, I. Kungratov

VEB-ADMINISTRATOR | WEBMASTERS:

N.Ya. Nursaidov, A.Sh. Maxmudov | N.Ya. Nursaidov, A.Sh. Makhmudov

TAHRIRIYAT A‘ZOLARI | EDITORIAL BOARD

S.S. Gulyamov – i.f.d., akademik.

B.A. Begalov – i.f.d., professor.

M.P. Eshov – i.f.d., professor.

O.Q. Abduraxmonov – i.f.d., dotsent.

K.B. Axmedjanov – i.f.d., professor.

I.M. Alimardonov – i.f.d., dotsent.

R. Salixodjaev – i.f.b.f.d. (PhD).

X. Amonov (Chexiya) – Professor

Karina Tatek Banetti (Chexiya) – Professor

O. Abdurazzakov (Germaniya) – Professor

Eko Shri Margianti (Indoneziya) – Professor

D.M. Nazarov (Rossiya) – Professor

N.M. Surnina (Rossiya) – Professor

Mark Rozenbaum (AQSh) – Professor

Abdul-Rashid (Afg‘oniston) – PhD.

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr) – PhD.

B. Saidov (AQSh). – PhD.

U. Axmedov (Daniya Qirolligi) – PhD.

A.A. Ismailov – i.f.d., professor.

I.E. Jukovskaya – i.f.d., professor.

T.S. Qo‘chqorov – i.f.d., professor.

R.A. Dadabaeva – i.f.n., dotsent.

Sh.I. Xashimxodjaev – i.f.n., dotsent.

A.A. Abidov – t.f.n., dotsent.

I.M. Abdullaeva – i.f.n., dotsent.

N.B. Abdusalomova – i.f.d., dotsent.

Sh.S. Egamberdiev – i.f.b.f.d. (PhD).

R.X. Alimov – i.f.d., professor.

A.U. Qobilov – i.f.n., dotsent.

R.X. Nasimov – t.f.b.f.d. (PhD).

S.S. Qulmatova – i.f.b.f.d. (PhD).

UDK: 330.34:005.44(575.1)(08)

KBK: 65.011(50‘)ya43

G 55

Raqamli biznes moliyaviy boshqaruvida «yashil» korporativ hisoblarni qabul qilishning asosiy afzalliklari.....	4
Teshaboyev To‘lqin Zakirovich	
Mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish tizimini takomillashtirish.....	10
Masharipov Farrux O‘tkirovich	
Business intelligence systems and brand equity management in high education: a critical assessment through the ethical lens.....	18
Zufarova, Nozima Gulamiddinovna	
Mathematical modeling of corruption dynamics using numerical methods.....	23
Jabborov N.M., Eshdavlatova S.E.	
Xalqaro intellektual migratsiya sohasidagi zamonaviy tendensiyalar.....	32
Islamov Baxtiyor Anvarovich, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna, Gazieva Sulxiya Saidmashrafovna	
Оценка влияния кибербезопасности на финансовую устойчивость организаций: адаптация к растущим угрозам в современной экономике.....	41
Атания Зов Жасурбек Хамидович, Сулейманов Ильнур Радикович	
Yoshlarni innovatsion faoliyatga jalb qilishning asosiy yo‘nalishlari.....	48
Otamuratov S.S.	
Система ключевых показателей эффективности труда: разработка и внедрение kpi на предприятиях.....	55
Рахматуллаева Шахноза Хамидовна, Холматов Мухриддин Мумин угли	
Correlation analysis of the relationship between indicators of stability of the banking sector and macroeconomic indicators.....	62
Sharipova Nilufar Hikmatullayevna	
Factors determining liquidity management in commercial banks and a comparative analysis of emerging markets.....	68
Sattorova Nasiba Ganijon kizi	
Improvement of cost accounting at oil refineries in the republic of Uzbekistan.....	73
Makhkamova Saida Gayratovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali indeksini ta’lim tizimiga investitsiyalarni jalb etish orqali rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Axmadaliyeva Niholaxon	
Economic integration of central asian countries: reality and prospects.....	85
Vokhidova Mehri Khasanovna, Abdulaziz Erkaboev Baxromovich	
Assessment of prospects for effective use of current assets in oil and gas industry enterprises and identification of alternative scenarios.....	90
Mavlyanova Dilobar Makhkamovna	
Influence of the volume of industrial production in Uzbekistan on the import trend.....	97
Sherzod Igamberdiyevich Mustafakulov, Khasan Sabirov, Talibjonov Khurshidbek	
Ways of developing branding process in higher educational institutions.....	106
Shakirova Dilfuza Tulkunovna	
Comparative analysis of green finance initiatives: a global perspective.....	111
Melikuzieva Dilrabo, Khidirov Nodir	
Improving analytical and synthetic accounting of costs and output in animal husbandry.....	117
Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
Результат инвестиций в человеческий капитал в Узбекистане.....	125
Искандарова Дилафруз Икром кизи	
Korporativ tuzilmalarda korporativ madaniyatni tahlil qilish va baholash usullari.....	131
Sadikova Muslima Alisher qizi	
Unified use of cluster systems in improving the economic efficiency of regional tourism development.....	136
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Improvement of accounting of authorized capital at joint-stock companies.....	146
Ortikov Ergashjon Yakubboevich	

Davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va savdo hajmining o'sishi: davlat siyosatining natijalari va imkoniyatlari.....	151
S.Turabov, Sh.Oybekov	
Raqamli biznesni kichik korxonalar faoliyatida rivojlanishi.....	156
Kambarova Shaxnozaxon Mirvohitovna	
The role of artificial intelligence in taking full advantage of the benefits in agriculture and the cultivation of medicinal plants.....	161
Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
Principles and organization of dividend policy development in joint stock companies.....	165
Akmal Komiljonovich Shermukhamedov	
Innovative and production development of regional grape clusters in the Republic of Uzbekistan.....	172
Saidakmal S. Kasimov, Muhitdinov Asror Akobirovich, G'ayratjon A. Alimov	
The value and advantages of artificial intelligence in foreign language teaching.....	177
Babayeva Komila Rishatovna	
Navigating the future of finance with digital currencies.....	181
Nimatullaev Khondamir Tursunboy ugli	
Sustainable practices in textile manufacturing: a shift towards eco-friendly marketing.....	186
Nosirova Charos	
Iqtisodiyotda innovatsion faoliyat infratuzilmasini axborot tizimlari boshqarish usullari.....	192
A. Inyatov	
Davlat organlarida loyiha faoliyatini tashkil etishning xususiy sektordagi xususiyatlari.....	197
Irisqulova Munisa Akmal qizi, Sharipova Nigina Xamidbek qizi	
The impact of investment on economic growth: evidence from uzbekistan.....	202
Abdusalomov Marufjon Olimjon ogli, Toshbotirov Ulugbek Oktam ogli	
O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish.....	209
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, Mavlanova Nargiza Eshquziyevna	
Использование математических моделей в ии для разработки управленческих решений в электронной коммерции.....	216
Исохужаева Мунира Яшнаровна	
Jahonda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning zamonaviy modellari.....	221
O.X.Xamidov, A.J.Abdullayev, N.F.Odinayeva	
Современные методы инициирования и осуществления платежей в Узбекистане: тенденции и правовое регулирование.....	228
Гаипов Жасур Бахром угли	
Instruments for stimulating the increase of investment activity in the regions of Uzbekistan to achieve macroeconomic stability.....	235
Srozhiddinova Zarina Khayriddinovna, Babajanova Lola Shopulatovna	
Improvement of long-term assets grouping as a priority of accounting organization in seasonal organizations.....	246
Kholbekov Rasul Olimovich	
Пути совершенствования ведения статистики труда в Республике Узбекистан на основе зарубежного опыта.....	250
Таирова Алия	
Проблемы в сфере оказания коллекторских услуг в зарубежной практике и возможности их преодоления.....	258
Тулураганова Шахноза Самукджановна	
O'zbekiston va jahon sanoat iqtisodiyotining global muammolari va tendensiyalari.....	264
Yusupov Ulug'bek Mamayusovich	

Kambarova Shaxnozaxon Mirvohitovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Maqolada kichik korxonalarda raqamli biznes faoliyatini yo'lga qo'yish, yaxshilash va takomillashtirish masalalari ko'rsatilgan. Shu bilan bir qatorda raqamli biznesning afzalliklari va kamchiliklari, kichik korxonalarida uning o'rni va roli o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Raqamli biznes, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiya, ekstensiv, intensiv, tadbirkorlik, kichik biznes, optimallashtirish, sun'iy intellekt, internet, Amazon, Uber, Airbnb, default.

KIRISH

Rivojlangan bozor iqtisodiyotini modernizatsiyalash davrida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, rivojlantirish, taraqqiyotga erishish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib, ushbu sohani har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun raqamli biznes tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Raqamlashtirish — deganda biznes jarayonlarini optimallashtirish, kompaniyaning ishlab chiqarish unumdorligini oshirish va mijozlar bilan hamkorlikni yaxshilash, raqamli texnologiyalardan foydalanishni ko'zda tutuvchi biznesni transformatsiyalash tushuniladi. Raqamlashtirishning asosiy bosqichlaridan biri, mijoz va kompaniya o'rtasida yana-da qulay va tezkor hamkorlikni tashkil qilish hisoblanadi. Raqamli biznes deganda biznes yuritish uchun raqamli texnologiyalar va raqamli jarayonlardan foydalanish tushuniladi. U onlayn savdo va marketingdan tortib, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) va ta'minot zanjiri boshqaruvigacha bo'lgan keng ko'lamli faoliyatni qamrab oladi.

Biroq, "biznesni raqamlashtirish nima?" degan savoldan kelib chiqadigan bo'lsak, ushbu jarayon quyidagi maqsadlarga ega ekanligini ta'kidlashimiz lozim:

- Mahsulot (yoki xizmat)ni yaxshilash: uning sifatini, jozibadorligini, foydalanishda qulayligini, yetkazib berish xizmatini;
- Kompaniyaning ishlab chiqarish va boshqa ichki jarayonlarini avtomatlashtirish;
- Ichki va tashqi kommunikatsiyalarni soddalashtirish.

Bu jahon iqtisodiyotida yangi texnologik yuksalish amalga oshirishga yordam beradigan eng muhim yo'nalishlardan biridir. O'z biznesining raqamli transformatsiyasini bugun boshlamagan kompaniyalar samarali bo'ladi va yangi bozor haqiqatlari va ertangi kunning yana-da pragmatik "raqamli" raqobatchilari bosimi ostida shunchaki yo'q bo'lib ketadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2020-yil "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb e'lon qildilar, hamda ularning tashabbuslari bilan iqtisodiyot va menejmentning nazariy va amaliy muammolari: mikro va makrodarajalarda 34 fanda nazariy va eksperimental ilmiy tadqiqotlar, raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilandi. Bu esa, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiyalash va "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-son Qarorida, biznesni raqamlashtirish va korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, bir qator vazifalar belgilab qo'yilgan, ular ichida:

- Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ikki oy muddatda "140 ta ilg'or sanoat korxonasi" dasturini amalga oshirish jarayonlarini raqamlashtirishni nazarda tutuvchi, shu jumladan ushbu dasturga kiritilgan sanoat loyihalarini tadbirkorlik subyektlariga ochiq tanlov asosida taklif qilish imkoniyatiga ega, elektron platformani ishga tushirish;

- Hisoblarni shakllantirish va topshirish jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish hisobiga ularning qog'oz shaklini bekor qilish;
- Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish. Bunda:
 - Jamg'armaning moliyaviy instrumentalini belgilash, jumladan, kichik tadbirkorlik subyektlari ustav fondida jamg'arma tomonidan kiritiladigan mablag'lar hisobiga ishtirokchi (tāsishi) sifatida ishtirok etish hamda kichik biznes loyihalari uchun ta'minot taqdim etish;
 - Jamg'armaning resurs bazasini kengaytirish va ustav fondini oshirish maqsadida, "Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi raqamli transformatsiya" markazining elektron kooperatsiya portalini jamg'armaga balans qiymatida beg'araz o'tkazishni nazarda tutish;
- Kichik biznesga ko'maklashish markazlari tomonidan startap tashabbuskorlari va tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardosh, arzon, sifatli hamda katta hajmdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish uchun oliy o'quv yurtlari, kichik biznes subyektlari, sanoat korxonolari, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonolari, texnoparklar, sanoat klasterlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan kichik biznesni rivojlantirish va kengaytirish bo'yicha o'quv dasturini amalga oshirish.¹⁰²

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Rossiyalik iqtisodchi olim V.Yu. Burov o'z izlanuvchilarida kichik korxonalar institutining bozor iqtisodiyoti samarali faoliyat ko'rsatishining elementi sifatida, raqamli texnologiyalarga alohida qiziqishini qayd etdi. Uning fikricha, kichik biznes uchun raqamlashtirish, raqobat sharoitida omon qolish va o'z faoliyatini zarur darajada ushlab turish yo'llaridan biri bo'lib, bu juda tez, lekin bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak: korxonalarni raqamli infratuzilma bilan jihozlashdan tortib, raqamlashtirish strategiyasini zamonaviy jihatlarini shakllantirishgacha hisobga olishni nazarda tutgan.¹⁰³

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanilgan, soha bo'yicha o'rganib chiqilgan adabiyotlar, iqtisodchi olimlarning qiyosiy va tanqidiy tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2023-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majliska Murojaatnomasi da, tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha yana-da qulay sharoitlar yaratilishi, 2023-yilda bu sohada qilinishi zarur bo'lgan yo'nalishlarni belgilab berdilar. Rivojlangan davlatlar tajribasidan mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarimiz uchun ancha foydali yo'llarini o'rganishimiz mumkin. Jumladan, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan eksport jarayonida, raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalanish darajasi rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarilishi lozim. Olimlar tomonidan olib borilgan tahliliy ma'lumotlarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, "tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan eksport jarayonlarini amalga oshirishda zarur bo'ladigan raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi bo'lishi eksportni yana-da rivojlantirishga va bu sohada mavjud texnik muammolarni bartaraf etishga olib kelishi va rivojlangan davlatlar darajasida bo'lishi zarur."¹⁰⁴

Endilikda, servis biznesi «default» raqamli biznesga aylanyapti. V.A. Boroday o'z izlanuvchilarini olib borish jarayonida Amazon, Uber, Airbnb va boshqalar raqamli inqilobdan qanday qilib foydalanish – biznes yuritishning tamomila yangi sxemalarini o'ylab topish va amalga oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Ilmiy izlanuvchilar natijasida "hayot sahnasiga yangi avlodlar – internet tarmog'ida «yashaydigan» yoshlar – chiqib kelishi, biznesni onlayn («raqamli») bo'lishiga, birinchi navbatda, default majbur qiladi."¹⁰⁵ - degan fikr Uber tomonidan bildirildi.

¹⁰² "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori 2023-yil 4-sentabr, PQ-292-son <https://lex.uz/acts/-6591947>

¹⁰³ Буров В.Ю. Малое предпринимательство в условиях цифровой экономики проблемы и перспективы// Формализация как основа цифровой экономики материалы Всероссийской науч.- с межд. участием, посвященная 75-летию со дня рождения и 50-летию научно- педагогической деятельности Заслуженного экономиста Российской Федерации, д-ра экон. наук, проф. Ованесяна С.С. Иркутск, 2018. С. 89–95

¹⁰⁴ Rasulova D.V. – BTOM, i.f.d.,prof. Tadbirkorlik sub'ektlari eksportini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Biznes va iqtisodiyotda raqamli transformatsiya mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. Toshkent 2023. 14 bet.

¹⁰⁵ Бородай В.А. Предпосылки устойчивого развития бизнеса в турбулентной среде // В сборнике: Регулирование экономической деятельности и деловая среда: проблемы, перспективы и решения Сборник научных трудов по материалам III Международной научно-практической конференции. 2017. С. 332-341.

Tadqiqotlarga ko'ra, 2020-yilda dunyoda raqamli texnologiyalarni sotib oluvchilar soni 2,05 milliard kishiga yetgan bo'lsa, bu dunyo aholisining chorak qismini tashkil etadi. Qulaylik va xarajatlarni tejash kabi omillar odamlarni elektron tijoratga moslashtirishga undaydi, yuqori internet tezligi va arzon qurilmalar kabi omillar bu jarayonga yordam beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar elektron biznes va elektron tijorat imkoniyatlarini kam baholaydigan kompaniyalar bozorining yangi sharoitiga moslashishga qodir raqobatchilarning bosimi ostida, tijorat mavqeini yo'qotishi mumkinligini aniq ko'rsatib turibdi. Shu sababdan tadbirkorlik sub'ektlari internet tarmoqlari orqali xizmat ko'rsatishning turli xil yo'nalishlaridan foydalanishga, ya'ni reklama berish, onlayn xizmatlar taqdim etish, umumiy tarzda xarajatlar kamligini hisobga olgan holda, o'z faoliyatlarini raqamli texnologiyalar bilan bog'lashga harakat qilishmoqda.¹⁰⁶

O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsion jarayonlarni faollashtirish, axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish uchun sharoitlarni ta'minlashga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganlaridek, "Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor".¹⁰⁷

Biroq, O'zbekistonda Internet tarmoqlarining kerakli darajada rivojlanmaganligi, elektron savdo xizmatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Internet kelajak texnologiyasidir, ushbu texnologiyadan qanday samarali foydalanish kerakligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020 yil 13 fevral kuni axborot texnologiyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan tadbirda keltirgan ma'lumotlariga muvofiq, "AQShda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulodagi ulushi 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Hindistonda 5,5 foizni tashkil etadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2 foizdan ham oshmaydi." Shunday ekan, O'zbekistonda raqamli iqtisodni, xususan elektron savdo xizmatini rivojlantirish bugungi kunning eng muhim dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, elektron-savdoning salbiy oqibatlarini ham ko'rsatib o'tish lozim. Ayrim tadqiqotlarga ko'ra, dunyoda onlayn-tijoratning keskin o'sishi jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. Internet asrida rivojlangan mamlakatlar aholisining endi ko'p do'konga ehtiyoj sezmaydilar. Vaziyatning boshqa tomoni shundaki, xarid qilish markazidagi do'konning odatiy formatida qolib, o'z vaqtida Internetga kira olmagan sotuvchilar bankrotlik xavotiriga ega. AQShda 2017 yil davomida 3500 dan ortiq do'konlar yopildi. Tahlilchilarga ko'ra, besh yildan so'ng AQShda savdo markazlarining yarim yopilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, ishsizlik darajasining ortishiga olib keladi. Sababi, bitta operator bir vaqtning o'zida bir nechtdan sotuvchilarni o'rnini bosishi mumkin. Shuningdek, elektron savdo orqali xizmatlar amalga oshirilganda, mahsulotlarni saqlash uchun katta omborxonalar, muzlatkichlarga bo'lgan talab pasaytiriladi.¹⁰⁸

Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirish vositasi yoki usuli, bu kichik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlaydigan raqamli iqtisodiyot, kichik korxonalar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. Bu ishlab chiqarishda maksimal foyda olish imkonini beradi, lekin bir shart bilan, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda jamiyat talab qiladigan yuqori texnologiyali tovarlar va xizmatlarni yaratish lozimdir. Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati deganda, raqamli iqtisodni rivojlantirish tadbirkorning o'z vakolati doirasida tashkil etilishi tushuniladi. Bu yerda, kichik biznes faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanganda tadbirkorlik xavfi keskin oshishi mumkinligini hisobga olish zarur. Raqamlashtirishga asoslangan kichik biznesni ishlab chiqarish faoliyati va moliyaviy resurslardan foydalanish, ham keng, ham intensiv bo'lishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotdan keng foydalanish va uni rivojlantirish ishlab chiqarishga qo'shimcha resurslarni jalb qilishga qaratilgan. Kichik korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni jadallashtirish, birinchi navbatda, AKTda yuqori sifatli va samarali foydalanishdan iborat bo'lib, ishlab chiqarish natijalari uning xarajatlarga qaraganda tezroq o'sib boradi, shuning uchun ishlab chiqarishga nisbatan kamroq resurslarni jalb qilish orqali katta natijalarga erishish mumkin. Hozirgi vaqtda bunday intensiv rivojlanishning asosi - raqamli iqtisodiyotdir.

¹⁰⁶ S.S.Gulyamov, R.X.Ergashev, S.N.Xamrayeva Raqamli iqtisodiyot - (o'quv qo'llanma), - T.: 2020. -377 b

¹⁰⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25.01.2020
<https://old.gov.uz/uz/news/view/26071>

¹⁰⁸ S.S.Gulyamov, R.X.Ergashev, S.N.Xamrayeva Raqamli iqtisodiyot - (o'quv qo'llanma), - T.: 2020. -377 b.

Ishlab chiqarishni jadallashtirish tahlili, raqamlashtirishning ekstensiv va intensiv rivojlanish omillarini tasniflashni talab qiladi. Ko'pgina amaldagi tadbirkorlarning laqayatsizligi menejment, marketing, moliya kabi sohalarda yetarli bilimga ega emasligi, menejmentda yetarli tajribaning yetishmasligi, nostandart muammolarni hal qilishdagi qiyinchiliklar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va to'liq foydalanish bo'yicha ma'lum ko'nikmalar kichik biznesning yetarli darajada tez rivojlanmasligiga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish uchun investitsiyalar zarur va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan, uning dolzarbligi ortib boradi. Bu nafaqat yangi, yuqori texnologiyali mahsulotlarning chiqishiga, balki kichik biznesni rivojlantirish muammolarining muhim omillaridan biri bo'lgan ushbu jarayonni moliyalashtirishning yetarli emasligi bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, ilmiy izlanuvlarni umumlashtirib, raqamli iqtisodiyotda kichik biznesning samaradorligini oshirish yo'nalishi bo'yicha, respublikada olib borilayotgan jarayonlarni tahlil qilib, shuni aytish lozimki, raqamlashtirishni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirib, yangi texnologiyalarni "davlat-xususiy sheriklik" doirasida biznes ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Biz barcha mavjud darajalarda ta'lim olish jarayonidagi o'zgarishlardan boshlashimiz kerak. Bu yerda raqamli iqtisodiyot talab qiladigan yangi vakolatlar, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish nuqtai nazaridan raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, tegishli shart-sharoitlarni yaratish, ta'lim dasturlarini o'zgartirish zarur, bu esa yangi turdagi vakolatli tadbirkorlarni yaratish uchun qulay muhitni yana rivojlantiradi.¹⁰⁹

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, aholini raqamli savodxonligini oshirish yana bir zaruriy shartdir. "Bir million dasturchi" loyihasi kabi tashabbuslar allaqachon 1,2 million nafardan ortiq yoshlarni asosiy dasturlash ko'nikmalariga o'rgatgan. Endilikda, Raqamli texnologiyalar vazirligiga, har yili 8 ming nafardan eng iqtidorli yoshlarni saralab, nufuzli xalqaro kompaniyalar talabiga mos dastur asosida o'qitish vazifasi qo'yildi. Bu degani, biz hayotni o'zgartiruvchi raqamli yechimlardan nafaqat foydalanadigan, balki yaratadigan avlodni tarbiyalash ortidan yurishni boshlaymiz. Barcha ta'lim muassasalari, jumladan, oliy ta'lim tashkilotlari bo'lajak avlodda raqamli ko'nikmalarni shakllantirish, maxsus ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklarni joriy etish hamda ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirish zarur.¹¹⁰

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli biznesni rivojlantirish uchun, uning shakllantirish va tashkil qilish yo'nalishida uzluksiz ishlashi muhimdir. Raqobatchilarni mag'lub etish uchun biz zamonaviy texnologiyalar taqdim etadigan barcha imkoniyatlardan samarali foydalanishimiz kerak.

Bundan tashqari, samarali faoliyat yuritish uchun biznes "moslashuvchan" bo'lib qolishi, ya'ni o'zgarishlarga tezda javob berishi va ularga moslashishi kerak. Shunday qilib, agar kompaniyada ko'proq bo'sh pul bo'lsa, uni to'g'ri yo'naltirish kerak. Agar resurslar tanqisligi va xodimlarning ish hajmi ortib borayotganda, ish jarayonini optimallashtirishga qaratilgan o'zgarishlarni amalga oshirish lozim.

Raqamlashtirish kompaniya faoliyatini avtomatlashtirishga va bo'lajak o'zgarishlarga tezda javob berishga yordam beradi. Bu kompaniyaning doimiy rivojlanishiga imkon beradi.

Axborot biznesni rivojlantirish uchun eng zarur bo'lgan asosiy manbadir. Har doim iste'molchilar mahsulotlarga juda ko'p talab qo'yadilar va bozor jarayonlari kundan-kunga o'zgarib turadi.

Qabul qilingan ma'lumotlardan samarali foydalanish uchun kompaniya ularni tuzilishi va tahlil qilishi kerak. Buning uchun u sun'iy intellektni qo'llashi va katta ma'lumotlardan foydalanishi mumkin. Olingan ma'lumotlar sizga qaysi yo'nalishda harakat qilishni va mijozlar muammolariga qanday yechimlarni topishni aniqlash imkonini beradi va biz to'liq ushbu taklifga qo'shilamiz.

Iqtisodiy tahlil va o'rgangan olimlarning raqamli iqtisodni rivojlantirish jarayonlarini o'rganish natijasida biz ma'lum xulosalarga keldik: iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash va taraqqiy etish jarayonida, raqamlashtirish va raqamli texnologiyalardan unumli foydalangan holda, iqtisodiyotni barcha sohalarga kirib borish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, iqtisodiyotning kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida raqamli biznesni tashkil qilish, korxonalarga raqamli tizimni, raqamli texnologiyalarni jalb qilish dolzarb masala ekanligini ta'kidlash lozim. Ushbu masalada har bir korxona o'z faoliyatida ushbu texnologik jarayonlarni qo'llash orqali iste'molchilarning talabini qondirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport salohiyatini oshirishda foydalanish kerak. Raqamli biznesni kichik korxonalarda qo'llashda afzallik tomonlari ko'pligini, har

¹⁰⁹ Аброр Кабулов. Плеханов, Роль цифровизации в повышении эффективности малого бизнеса в Узбекистане. Jamiyat va innovatsiyalar ilmiy jurnal. Special Issue - 2, №01 (2020) / ISSN 2181-1415

¹¹⁰ Raqamlashtirish sohasidagi dolzarb masalalar muhokama qilindi. 10.12.2023 <https://president.uz/uz/lists/view/6938>

tomonlama sotuvchi va xaridor uchun firmalar ish faoliyati va xizmat ko'rsatish jarayoni qulay ekanligini aytish lozim.

Yuqorida keltirilgan O'zbekiston Respublikasining Prezidentining raqamlashtirish va biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator vazifalari belgilab berilgan bo'lib, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish nazarda tutilgan. Bu o'rinda oliy ta'lim tizimi dasturlariga, biznesni raqamlashtirish masalasini kiritish kerakligini va yoshlarimizga, tadbirkorlarga, kichik korxona xodimlariga raqamli biznesni chuqur o'rgatish va turli xil dars mashg'ulotlarini tashkil qilish taklif qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori 2023-yil 4-sentabr, PQ-292-son <https://lex.uz/acts/-6591947>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25.01.2020 <https://old.gov.uz/uz/news/view/26071>

3. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. Газета «Народное слово» № 19 (7521). 25 январь 2020 г.

4. S.S.Gulyamov, R.X.Ergashev, S.N.Xamrayeva Raqamli iqtisodiyot - (o'quv qo'llanma),- T.: 2020. -377 b

5. Аббос Кабулов. Плеханов, Пол цифровизации в повышении эффективности малого бизнеса в Узбекистане. Jamiyat va innovatsiyalar ilmiy jurnal. Special Issue - 2, №01 (2020) / ISSN 2181-1415

6. Raqamlashtirish sohasidagi dolzarb masalalar muhokama qilindi. 10.12.2023 <https://president.uz/uz/lists/view/6938>

7. Rasulova D.V. – BTOM, i.f.d.,prof. Tadbirkorlik sub'ektlari eksportini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Biznes va iqtisodiyotda raqamli transformatsiya mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. Toshkent 2023. 14 bet.

8. Бородай В.А. Предпосылки устойчивого развития бизнеса в турбулентной среде // В сборнике: Регулирование экономической деятельности и деловая среда: проблемы, перспективы и решения. Сборник научных трудов по материалам Международной научно-практической конференции. 2017. с. 332-341.

9. Буров В.Ю. Малое предпринимательство в условиях цифровой экономики проблемы и перспективы// Формализация как основа цифровой экономики материалы Всероссийской науч.- с межд. участием, посвященной 75-летию со дня рождения и 50-летию научно- педагогической деятельности Заслуженного экономиста Российской Федерации, д-ра экон. наук, проф. Ованесуана С.С. Иркутск, 2018. С. 89–95

10.Shohruh Rahmat, Biznesni raqamlashtirish masalalari. "Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi" Loyihalar bajarilishini nazorat va tahlil qilish bo'limi boshlig'i. Biznesni raqamlashtirish masalalari. 23.05.2022 <https://ictnews.uz/23/05/2022/raqamli-biznes/>

11.Цифровизация бизнес-процессов: что это, зачем и как внедрят. <https://sberbs.ru/announcements/цифровизация-бизнес-процессов-что-это-зачем-и-как-внедрят>

